

TURKIY XALQLAR ADABIYOTIDA AYOL IJODKORLAR MEROSI – TARIX, AN’ANA VA DAVOMIYLIK

Xo’jamberdiyeva Rayhona

Qo’qon Universiteti

Xorijiy til yo’nalishi, 2-kurs talabasi

clarefire2006@gmail.com

Anotatsiya. Bu maqola Turkiy xalqlar adabiyotida ayol yozuvchilarning adabiy merosi, Turkiy adabiyotning tarixiy rivojlanishi, an’analari va davomiyligiga e’tibor qaratadi. Maqola ilk shoiralarning o’rni va ularning ijodini shakllantirgan ijtimoiy-madaniy sharoitlarni o’z ichiga oladi va ularning sevgi, o’zlik va ruhiy borliq kabi asosiy sifatlariga urg’u beradi. U ayollarning ijodida sheriy sifatlar, masalan, hissiyotlar va ularning qanchalik chuqur joylashgani va lirik hikoyalarni tahlil qiladi. Bundan tashqari, ilk sheriy asarlardan tortib hozirgi zamonaviy asarlargacha bo’lgan transformatsiya tahlil qilinadi. Tarixiy va qiyosiy tahlilni o’z ichiga olib, maqolada ayollarning ijodi zamonaviy o’zgarishlar bilan birgalikda qanday rivojlangani, saqlab qolingani va an’analarga moslashganini yoziladi va ayollar bu boy madaniyat va merosga qo’shgan hissalariga e’tibor qaratadi.

Kalit so’zlar. Ayollar o’rni, meros, sheriya, Turkiy xalqlar adabiyoti, an’ana, ijod, davomiylilik, madaniy o’zlik, adabiyot, rivojlanish.

Annotation. This article explores the literary heritage of women writers in Turkic literature, focusing on its historical development, traditions, and continuity. It examines the role of early female poets and the socio-cultural conditions that shaped their creative work, highlighting key themes such as love, identity, and spiritual expression. The study also analyzes the poetic and stylistic features characteristic of women’s writing, including emotional depth and lyrical narration. Furthermore, it investigates the transformation of these traditions in modern literature through the works of contemporary authors. By providing a comparative and historical analysis, the article demonstrates how women writers have preserved cultural values while simultaneously introducing new perspectives, ensuring the continuity and evolution of Turkic literary traditions. It also emphasizes the significant contribution of women writers to the enrichment of cultural and literary heritage.

Key words. Role of women, heritage, poetry, Turkic literature, values, writing, continuity, cultural identity, literature, development.

Kirish. Turkiy xalqlar adabiyotida ayol yozuvchilarning adabiy merosi juda muhim o'rin tutadi va zamonaviy adabiyotshunoslikda katta ahamiyatga ega. Asrlar davomida, Turkiy xalqlar adabiyoti erkak yozuvchilar tomonidan sezilarli ravishda shakllantirildi. Shu bilan bir paytda ayol yozuvchilar va shoiralarning qo'shgan hissalarini taqdim etilmadi va chegaralandi. Bu chegara ularda ishtirok yo'q bo'lganini emas balki ularda ta'limga, mualliflikka va xalqqa tanitishga bo'lmagan imkoniyatni bildiradi. Ammo tarix va og'zaki va yozma matnga chuqurroq tahlil ayollar ham adabiyotni shakllantirishga turli davrlardan beri muhim va davomiy hissa qo'shib kelishganini oshkor qiladi. Ayollarda mashhurlik yetarlicha kam va tan olinmagan bo'lsada, ular adabiyot rivojiga va shakllanishiga faol hissa qo'shishgan. Ushbu maqola tarixiy va qiyosiy ravishda Turkiy xalqlar adabiyotida ayollar ijodining rivojlanganini tahlil qiladi va davomiylik mavzulariga, uslubiy xususiyatlar hamda madaniy qadriyatlarga urg'u beradi. Unda eski davrlarda ayol adabiy ifodasining paydo bo'lishi, zamonaviy va hozirgi kungi adabiyotga kelishigacha bo'lgan o'zgarishlar, asarlarda estetik va uslubiy sifatlarni o'z ichiga oladi. Ayollarning hissalarini kengroq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish doirasida qo'yish orqali, ushbu o'rganish faqatgina adabiy meros himoyasida emas, balki adabiy usullarni qayta shakllantirish va yangi intellektual istiqbollarni joriy etishda qilgan harakatlarini ifodalaydi.

Turkiy adabiyotda ayollar yozuvchiligining tarixiy asoslari. Turkiy xalqlar madaniyatida ayollar tarafidan ijodning kelib chiqishi og'zaki adabiyotda boy va murakkablikka bog'liq va yozma adabiyotda ham asosiy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Dostonlar, xalq qo'shiqlari va afsonalari ayollarga ijtimoiy va axloqiy hayotda muhim o'rin egallovchilar deb ko'rilishiga imkon yaratdi. Bu kabi taqdimotlar, erkak hikoyachilar tomonidan aytilgan bo'lsa ham, baribir ayollarning harakati, hissiy chuqurligi va aqlan mavjudligini bildiradi. Dostonlardagi ayol siymolar faqatgina sub'yektlarni emas, balki donolik, iroda va axloqiy o'zlikni shakllantiradi, shuning uchun ham yaqin-yaqindagi ayollar ijodida ramziy asos sifatida rol o'ynaydi. Og'zaki adabiyotdan yozma adabiyotga bosqichma-bosqich o'tilgani sari, ayollarni adabiyotda to'g'ridan to'g'ri ishtirok etishi cheklanganicha qoldi, ammo butkul yo'q

bo'lib ketmadi. Ba'zi aniq vaziyatlarda, ayniqsa saroy va aristokratik muhitda, ayollar adabiy madaniyatga va ta'lim olishga imkoniyatlari bo'ldi. Mana shunday holatlarda eng ilk ayol ijodkorlar yetishib chiqdi. Ularning orasida, afg'on shoirasi Robiya Balxiy ishlari qadrlanib va saqlanib kelayotgan eng erta ayol ijodkorlardan biridir. U o'zining sherlarida, o'tkir ta'sir qiluvchi hissiyotlar, alam va sevgini o'zining hayotiy tajribasidan kelib chiqib tasvirlashga xohishini juda mohirlik bilan ko'rsatgan. Balxiyning quyidagi sherida u o'zining ijodini qanday mohirligini bevosita ko'rsatgan:

*Tanam qalbimning holidan boxabar bo'lsa edi,
Qalbm tanamning ahvolini anglasa edi.
Sendan osoyishta qochib ketar edim,
Afsus, qayerga borsam ozod bo'lur edim?*

Bunday tragedik hissiyotlar uning o'z hayotiga bog'liqligi aytilgan va uning yorqin xotirasiga bag'ishlab ramziy haykal Austrianing Vienna shahrida qurilgan. Unga qo'shimcha ravishda, o'zbek shoirasi Zebuniso (1643-1721) mamlakatning adabiy rivojlanishiga yorqin hissa qo'shgan. Zebuniso o'z sherlarida aqliy va ruhiy iroda o'rtasida bog'liqlikni birlashtirgan. Taxallus ostida o'z sherlarini yozar ekan, u o'zlik va ichki ziddiyat mavzulari bilan qiziqadigan sherlar yaratishda jamiyatdagi ijtimoiy mavqega oid qo'yilgan cheklovlarni yengib o'tdi. Ularga o'xshagan ilk ayol ijodkorlarning bunday ishlari shuni ko'rsatadiki, cheklovlar qanchalik og'ir bo'lmasin, ayollar o'z ishlarini yoqin etishga qodirlar va hissiy o'zlikka urg'u berishadi. Ammo, bunga o'xshash misollar uncha ko'p bo'lmagan. Aksariyat ayollarga, adabiy madaniyatga o'z hissasini qo'shish jamiyat tomonidan qattiq cheklov ostiga olingan va bu o'z-o'zidan ularning ta'limini va dunyoga o'zlarini tanitishdan cheklab qo'ygan. Natijada, ayollarning adabiy ijodkorligi boshqacha yo'llar bilan ko'rsatilgan, masalan, anonym tarzda adabiyotga hissalarini qo'shishgan. Mana bunday ifoda orqali, ko'rinish kamroq berilgan bo'lsa ham, adabiy madaniyatni davomiyligi va uni kelgusi avlodlargacha saqlab qolishda juda muhim rol o'ynagan.

Ayollar yozuvchiligining an'anaviy va estetik xususiyatlari. Turkiy xalqlar adabiyotining ayollar ijodkorligida eng yorqin xususiyatlaridan biri bu uning hissiyotlar va lirik ifodaga kuchli urg'usidir. Qahramonlar haqida dostonlar, siyosiy mavzular yoki maqsadlar haqida ijodkorlikdan farqli o'laroq, ayollarning

yozuvchiligi insonning ichki dunyosiga katta e'tibor qaratadi va hissiy holatlar va shaxsiy kechinmalarni tahlil qiladi. Bu urg'u shunchaki stilistikaga oid afzalliklar haqida emas, balki ayollar shakllantirgan ijtimoiy holatlarni aks ettiradi. Jamiyatda adabiyotga hissa qo'shishning to'liq imkoniyati bo'lmagan bo'lsa ham, ayollar ichki kechinmalarga e'tibor qaratishdi va bu ichki tuyg'ularga e'tibor beradigan adabiy uslubni rivojlantirdi. Bu stilistika shaxsiy va qarindoshlik kechinmalariga yo'l berdi. Asosan, sevgi, asosiy rolni o'ynaydi, lekin u oddiy va ideallashtirib to'g'ridan-to'g'ri qilib aytilgan tildan yiroq. Uning o'rniga, u ikkinchi ma'noli va ba'zida zavq, azob, sog'inch va ruhiy o'zgarishlarni qamrab oladigan hissiyotdek aks ettirildi. Juda ko'p holatlarda, sevgi ayollarning o'zliklariga bo'lgan xavotirlarni ochib berdi. Sevgiga qo'shimcha ravishda, onaga va oilaga aloqasi bo'lgan mavzular ham yo'q emas. Bu turdagi mavzular ayollarning hayotiy kechinmalari hamda jamiyatda ularga yuklatilgan bosimlarni ochib berdi. Lekin, bu sherlar shunchaki ayollarning an'anaviy o'rnilarini emas, balki ularning shaxsiy orzulari va jamiyatdagi normalarni oshkor qiladi. Bunday qobiliyat adabiyotda ayollar ijodkorligini davomiylik va o'zgarishga undov sifatida farqlab turadi. Ayol yozuvchilar ko'pincha an'analarning boy manbalariga ham e'tibor berishadi, va bu ularning o'z ishlariga tanish ramziy namunalarni o'z ichiga oladi. Tabiiy tasvirlar, misol uchun, gular, fasllar va boshqa elementlar, hissiy holatlar va ramziy ma'nolarni berish uchun ishlatiladi. Bunday ifodalar odatda oddiy va o'qishga oson tuyilsada, ular istiora, ya'ni bir gapda ikki xil ma'no berish orqali kuchli darajaga chiqib ulgurgan. Shunga o'xshash chuqur tasvirlar turkiy ayollarining adabiyot orqali boshqa xalqlar madaniyatiga ham kirib borishini ta'minladi.

Zamonaviy adabiyotda davomiylik va o'zgarish. Zamonaviy davr Turkiy xalqlar orasida ayollar ijodkorligi rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi va muhim ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar qoldirdi. O'rta Osiyoda islohotchilik harakatining, xususan, jadidchilik harakatining vujudga kelishi jamiyatning rivojlanishi va gender rollari haqida yangi fikrlar targ'ib qilishda va ta'limga oid imkoniyatlarni kengaytirishda juda muhim rol o'ynadi. Ayollar bilimlarini kengaytirishar ekan, ular intellektual va adabiy hayotda faol ishtirok eta boshladilar. 20-asrda, ayollar ijodkorligi kengroq yoyildi va tanila boshladi va bu adabiy uslublar va mavzularni kengayishiga hissa qo'shdi. Zulfiya (1915-1996) kabi shoirlalar zamonaviy davrga

oid xavotirlarni an'anaviy uslub orqali chuqur ifodalashdi. Quyidagi Zulfiyaning sherida zamonaviy dunyo tashvishlari an'anaviy obrazlar orqali ifodalanadi:

*Shaharlar yuragida shovqinli iztirob uyg'onar,
Eski qadriyatlar zamon shamolida sinar.
Ayol qalbi esa vaqt bilan kurashar jim, sokin,
Umid esa tong kabi har qorong'ulikni yorar.*

Bunday usullar kelgusi avlodlar uchun ham chuqur ta'sir ko'rsatti. Halima Xudoyberdiyeva o'zining chuqur o'zligi va axloqiy madaniyati bilan ajralib turadigan yana bir shoira. Uning sheriy asarlari ayollar huquqlari, ijtimoiy adolatsizliklar va shaxsiy halollik kabi muammolar bilan yozilgan. O'zining ishlarida u ayollarning adabiyotdagi o'rnini kengroq va o'ziga ishonch bildirgani yaqqol bilinib turadi. Ayol yozuvchilardan oladigan bo'lsak, turk yozuvchisi Elif Shafak (1971-2005) turkiy an'analarga mos ravishda ayollarning ijodini aks ettirgan. O'zining romanlarida, Elif murakkab mavzular, masalan, o'zlik, vatanidan ko'chib ketish madaniy aralashuvni keltirgan. Bu o'zgarishlarga qaramay, turli xil davrlardan beri ayollar ijodi o'z muhimligini yo'qotmadi. Chuqur tuyg'ular, o'zlik va kechinmalarga doimiy urg'u zamonaviy davr va ilk davrlarni bir-biriga bog'laydi. Bu bog'liqlik davomiylikka va o'zgarishga olib keladi.

Xulosa. Turkiy xalqlar adabiyotida ayollar merosi murakkab va ko'p ko'lamli hodisa bo'lib, uni oddiy yondashuv bilan yetarlicha tushunib bo'lmaydi. Ilk davrlardan boshlab hozirgi zamonaviy davrgacha, nafis ayol ijodkorlar davomiy ravishda adabiy madaniyat shakllanishiga hissa qo'shib kelishgan. Maqoladagi ayollar ijodining tahlili asosan davomiylik va oz'garishga e'tibor qaratadi. Erta paytlardagi ayol yozuvchilarni tashqi cheklovlar cheklagan bo'lsada, ular o'zlarini tanitishga qobiliyat topdilar. Asosiy mavzular, masalan, sevgi, tuyg'ular va iroda yangi fikrlar va dunyo qarashlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Zamonaviy ilm-fanda ayollarning hissalarini adabiyot tarixini yanada qamrab oluvchi va har tomonlama bog'lab turish muhimligi tobora ortib bormoqda va buni qo'llashda ayol ijodkorlarni o'rni katta va rivojlanishga hissa qo'shishda davom etishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allworth, Edward. *Central Asia: A Century of Russian Rule*. Columbia University Press. [<https://www.google.com/search?q=Edward+Allworth+Central+Asia+A+Century+of+Russian+Rule>]
2. Kamp, Marianne. *The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling Under Communism*. University of Washington Press. [<https://uwapress.uw.edu/book/9780295983315/the-new-woman-in-uzbekistan/>]
3. Khalid, Adeeb. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. University of California Press. [<https://www.ucpress.edu/book/9780520215570/the-politics-of-muslim-cultural-reform>]
4. Schimmel, Annemarie. *As Through a Veil: Mystical Poetry in Islam*. Columbia University Press. [<https://cup.columbia.edu/book/as-through-a-veil/9780231071036>]
5. Baldick, Julian. *Mystical Islam: An Introduction to Sufism*. I.B. Tauris. [<https://www.bloomsbury.com/us/mystical-islam-9781850430693/>]
6. Najmabadi, Afsaneh. *Women with Mustaches and Men without Beards: Gender and Sexual Anxieties of Iranian Modernity*. University of California Press. [<https://www.ucpress.edu/book/9780520242637/women-with-mustaches-and-men-without-beards>]
7. Ahmed, Leila. *Women and Gender in Islam: Historical Roots of a Modern Debate*. Yale University Press. [<https://yalebooks.yale.edu/book/9780300055832/women-and-gender-in-islam/>]
8. Mernissi, Fatima. *Beyond the Veil: Male-Female Dynamics in Modern Muslim Society*. Indiana University Press. [<https://iupress.org/9780253204239/beyond-the-veil/>]
9. Kocaoglu, Timur. *Turkic Peoples and Literatures*. Indiana University Turkish Studies. [<https://iub.edu/turkishstudies/>]

10.Göknar, Erdağ. *Orhan Pamuk, Secularism and Blasphemy*. Routledge.
[<https://www.routledge.com/Orhan-Pamuk-Secularism-and-Blasphemy/Goknar/p/book/9780415892174>]

11.Shafak, Elif. *The Forty Rules of Love*. Penguin Books.
[<https://www.penguinrandomhouse.com/books/198872/the-forty-rules-of-love-by-elif-shafak/>]

12.Zulfiya. *Selected Poems*. Uzbek Literature Archive.
[<https://uzlit.uz/zulfiyaxonim>]

13.Xudoyberdiyeva, Halima. *Poetry Collection*. National Literature Portal of Uzbekistan.
[<https://n.ziyouz.com>]